

Polshadagi “Arch-Eco” Xalqaro Ilmiy Anjumanda TIQXMMIning o'rni

Joriy yilning 11 - iyun kuni Po'lsha Respublikasidagi Krakov Texnologiya Universiteti tashabbusi bilan “Zoom” onlayn platformasi orqali “IX Arch-Eco International Scientific Conference” xalqaro konferensiysi tashkil etildi. E'tiborli jihat, mazkur konferensiyanı ochilish marosimida Krakov Texnologiya Universiteti birinchi prorektori hamda Ukraina va Turkiya universitetlari vakillari bilan bir qatorda institutimiz “Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasi professori Tursunov Obid Bobokulovich o'z kirish nutqlari bilan konferensiyanı boshlab berdilar. Quvonarli jihat shundaki institutimiz professor-o'qituvchilariga bo'lgan e'tibor xalqaro maydonda ham oshib borayapti.



Shuningdek, professor Obid Tursunov va kafedra mudiri Dilshod Kodirov boshchiligidagi kafedraning I kurs doktaranti Nurislom Abdug'aniev va I kurs magistratura talabalari Rahimjon Qobilov, Sayyodbek Saminov, G'iyosbek Xasanov va Islom Karimovlar ishtirok etishdi. Bundan tashqari kafedra professori Obid Tursunov moderatorlik qilgan “Future Technology” seksiyasida “Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasi I kurs doktoranti va I kurs magistralarining ham chiqishlari konferensiya ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Xulosa qilib aytganda, mazkur xalqaro miqyosdagi konferensiya yosh izlanuvchilarimiz uchun kelajakda ilmiy izlanishlarida katta maktab bo'lib xizmat qiladi.



Xalqaro konferensiyanı yopilish marosimida Prof. Obid Tursunov so'zga chiqib xalqaro konferensiya tashkilotchilariga o'z minnatdorchiliklarini bildirgan holda yoshlarni to'g'ri yo'naltirish va ularni amalda qo'llab quvvatlash maqsadida mana shunday xalqaro proyektlarni amalda qo'llab quvvatlashlarini ta'ikidlاب o'tdilar.



Qo'shimcha ma'lumot:

Krakov Texnologiya Universiteti avtonom davlat universiteti bo'lib, 1945 yilda tashkil topgan va Polsha Fan va Oliy ta'lif vazirligiga bo'y sunadi. Ushbu universitet Polshadagi eng yaxshi texnik universitetlardan biridir. U quyidagi xalqaro reytinglarga kiritilgan:

2021 QS World University Rankings (#801)

2021 Emerging Europe and Central Asia University Rankings (#79)

2020 UI GreenMetric World University Ranking (#724)

TIQXMMI matbuot xizmati